

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarida xalq musiqasi orqali estetik didni rivojlantirishning pedagogik usullari

Nargiza Murodilloyevna Aslonova
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti

Annotatsiya: Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'z faoliyatini musiqa (fortepiano, torli cholg'ular, estrada ijrochiligi, xalq cholg'ulari, puflama va zarbli cholg'u asboblari, an'anaviy ijrochilik, akademik xonandalik) kabi yo'nalishlar bo'yicha olib boradi. Musiqa va san'at maktablari o'quvchilarini axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirishda musiqa nihoyatda katta ahamiyat ko'rsatuvchi san'at turlaridan biridir. Musiqaning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u bolalar his-tuyg'ulari va ruhiy holatlarining eng nozik qirralarini, ulardagi farqlarni o'zida ifoda qiladi va shu orqali bolaning ichki olamiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Musiqa san'ati qadim zamonlardan beri muhim tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilib kelgan.

Kalit so'zlar: estetik soha, zarbli cholg'u asbobi, puflama cholg'u asboblari, did, insoniy munosabat, musiqa va san'at maktabi, tarbiya vositasi, musiqa san'ati

Children's music and folk music in the school of art pedagogical methods of developing aesthetic taste

Nargiza Murodilloyevna Aslonova
Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages

Abstract: Children's music and art school, based on the interests and needs of students, organizes its activities in music (piano, string instruments, pop performance, folk instruments, wind and percussion instruments, traditional performance, academic singing). Music is one of the arts that is extremely important in the formation of moral and aesthetic culture of students of music and art schools. The unique features of music are that it expresses the subtlest aspects of children's emotions and mental states, their differences, and thus has a deep impact on the child's inner world. The art of music has served as an important means of education since ancient times. It forms the basis of the child's human attitude towards the world and other people.

Keywords: aesthetic field, percussion instrument, wind instruments, taste, human attitude, music and art school, educational tool, musical art

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'z faoliyatini musiqa (fortepiano, torli cholg'ular, estrada ijrochiligi, xalq cholg'ulari, puflama va zarbli cholg'u asboblari, an'anaviy ijrochilik, akademik xonandalik) kabi yo'nalishlar bo'yicha olib boradi.

Did (estetikada) - hayot va san'atning barcha sohalarida insonning estetik hodisalarni farqlash, tushunish va baholash qobiliyati. Did uzoq ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, mehnatning turli sohalaridagi tajribalar natijasida vujudga keladi. Didda shaxs, guruh va xalqning olamga estetik munosabati tajribasi in'ikos etilib, uni har bir kishi turli yo'llar bilan o'zlashti-radi, o'z individual estetik faoliyati bilan boyitadi. Did insonga xos fazilat. U yuksak yoki past, keng yoki tor, cheklangan yoki cheklanmagan, nozik yoki sayoz bo'lishi mumkin. Didning yuksak yoki pastligi biror narsa yoki hodisaga berilgan baho, bildirilgan munosabatda seziladi. Did insonning tabiat, jamiyat, hayot haqidagi tasavvurlari hamda kechinmalari darajasini bildiradi. Did - insonning tarixan shakllanib, o'zgarib turuvchi ma'naviy salohiyatlari ko'rinishidir. Muayyan ijtimoiy-tarixiy hodisalar, turli davrlar silsilasi didning mazmuni va kurinishiga uz ta'sirini o'tkazadi. Tabiat, jamiyat, san'at va insondagi go'zallikni xunukliklik, noziklikni qo'pollikdan, yaxshini yomondan ajrata bilish estetik did karakteri va darajasini ko'rsatadi. Estetik did milliy va umuminsoniy xususiyatlarga ega. Milliy xususiyatlar tayin tarixiy sharoit va an'analar bilan, umuminsoniy xususiyatlar esa bashariyat ma'naviy merosi bilan bog'liq. His-tuyg'usiz, ma'naviy kechinmasiz estetik did amal qilmaydi. Estetik did muhokamasida mavhum tafakkur emas, ma'naviy tuyg'ular, yorqin his-hayajonlar birinchi o'rinda turadi. Estetik idrok jarayonida, ya'ni biror narsaning estetik qiy-matini belgilashda insonning akliy va hissiy salohiyatlari birgalikda qatnashsada, hissiy mushohada asosiy ahamiyat kasb etadi. Har kimning didi har xil bo'ladi. Shuning uchun did yo'nalishini har bir kishining go'zallik haqidagi tushunchasi belgilaydi. did insonning faqat muomala madaniyatinigina emas, jamiyatdagi muayyan ma'naviy darajasini, kamolotini ham ko'rsatadi.

Did insonning kasbi, jinsi, yoshi, madaniyati bilan uzviy bog'liq. didsizlik - me'yorni buzish, uni bilmaslik va unga amal qilmaslikdir. Qo'pollik va bachkanalik didsizlik alomatidir. In-son didi tug'ma emas. U tarbiya orkali takomillashib va taraqqiy etib bo-radi. Yuksak va somom estetik didga ega bo'lish kishining ham ma'naviy, ham ruhiy boyligidan dalolat. Estetik didi takomillashgan va tarbiya ko'rgan odamning madaniy saviyasi yuksak, axloqiy qiyofasi go'zal, aqliy va hissiy kechinmalari chuqurrokdir. Insonning san'at asarlariga munosabati badiiy didda namoyon bo'ladi. Badiiy did insonning adabiyot va san'at asarlarini tushunib yetish, baholay olish va ulardan zavqlana bilish salohiyatini ko'rsatadi. Didni shakllantirish va rivojlantirish - estetik tarbiyaning vazifasidir.

Estetika olamning hissiy qabul qilinishini tadqiq etuvchi fandır. Estetika san'at, madaniyat va tabiatning subyektiv qabul qilinishini o'rganadi. Estetika falsafaning aksiologiya sohasiga kiradi. "Estetika" terminini nemis faylasufi A.Baumgarten (1714-1776) ilmiy muomalaga kiritgan. Estetikaning sinonimi sifatida go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo'llanib kelingan. Keyingi paytlarda nafoyeatshunoslik yoki nafosat falsafasi atamaları ham Estetikani anglatadigan bo'ldi. Estetika o'z ichiga san'at Estetikasi, tabiat Estetikasi, texnika Estetikasi, dizayn, sport Estetikasi, turmush Estetikasi, atrof muhitni go'zallashtirish va boshqalar sohalarni qamrab oladi.

Estetika nafosat, did, go'zallik, xunuklik, ulug'vorlik, tubanlik, fojaviylik, kulgililik, mo'jizaviylik, hayolilik singari kategoriyalar bilan ish ko'radi. Ular orasida nafosat tushunchasi alohida o'rin egallaydi. U bir tomondan, estetik anglashning barcha jihatlarini (estetik hissiyot, estetik zavq, estetik did, estetik muhokama va boshqalar), ikkinchi tomondan, estetik xususiyatlarni - amaldagi go'zallik, ulug'vorlik, fojaviylik, kulgililik va hokazo jihatlarini o'z ichiga oladi. Ana shu keyingi jihati bilan nafosat ba'zan Estetikaning predmeti sifatida ham qabul qilinadi.

Estetikaning tadqiqot ob'yektlari ichida san'at alohida o'rinni egallaydi, u qadimdan to hozirgi kungacha eng ko'p tadqiq etilgan estetik soha hisoblanadi. Estetikaning bu borada san'atshunoslik fanlaridan farqi shundaki, u o'z ob'yektiga falsafiy nazariy jihatdan yondashadi. Estetika san'atni - san'atkor, san'at asari, san'at asarini idrok etuvchi shaxsdan iborat yaxlit tizimda olib o'rganadi, barcha san'at turlari uchun zarur bo'lgan umumiy qonunqoidalarni ishlab chiqadi. Mas, adabiyotshunoslikdatch qofiya nazariyasini musiqaga yoki haykaltaroshlikka nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Estetikadagi kompozitsiya yoki uslub nazariyasi esa me'morlikdan tortib badiiy suratlashlikkacha bo'lgan hamma san'at turlariga taalluklidir. Ayni paytda Estetika san'atning tabiati, uning ijodiyliigi va boshqalar jihatlarini tadqiq etadi; badiiy oqimlar va yo'nalishlarning, ijodiy uslublarning mohiyatini o'rganadi.

Estetika falsafiy ilm sifatida ko'plab ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqadordir. Uning etika bilan aloqasi alohida diqqatga sazovor. Bu ikkala fanning o'zaro yaqinligi, avvalo, inson xatti-harakatining ko'p hollarda ham axloqiylik, ham nafosat uyg'unligidan iborat ekanligida; 2dan, Estetikaning asosiy tadqiqot ob'yekti bo'lmish san'at mohiyatan ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning badiiy in'ikosi sifatida doimo dolzarb axloqiy muammolarni ko'tarib chiqadi; 3dan, Estetikaning ba'zi tushunchalari etika uchun ham birdek xizmat qiladi; 4dan, Estetika o'rganadigan xulqiy go'zallik sohasi axloq bilan bevosita bog'liq. Ayni paytda ikkala fan bir-biriga juda o'xshash ekan degan taassurot tug'ilmasligi kerak. Estetika har bir ob'yektga aniq, muayyan yondashuvni talab qiladi, etika esa hamma uchun umumiy bo'lgan qonunqoidalarni, hikmatlarni ishlab chiqadi. Estetikaning psixologiya bilan aloqasi ham juda muhim: har ikkala fan ruhiy holatlarni o'rganadi. Har ikkala fan uchun

umumiy bo'lgan san'at psixologiyasi va badiiy ijod psixologiyasi degan maxsus yo'nalishlar mavjud. Estetika va sotsiologiyaning o'zaro munosabatlarida san'atni hamkorlikda o'rganish masalalari muhim. San'at asari alohida inson shaxsiga e'tibor qilgani holda, jamiyatni ijtimoiy munosabatlar tizimi, ijtimoiy tuzilma sifatida badiiy tadqiq etadi, ayni paytda sotsiologik tadqiqotlar uchun o'ziga xos material bo'lib xizmat qiladi; sotsiologiya jamiyat bilan san'atning o'zaro aloqalarini, san'atning ijtimoiy vazifalarini; san'atkorning jamiyatdagi o'rnini, mavqei, kitobxon va tomoshabinlarning ijtimoiydemografik holatlarini; shaxs ijtimoiylashuvida san'atlar va san'at asarining ahamiyatini tahlil qiladi. Mazkur muammolarni o'rganish uchun Estetika va san'at sotsiologiyasi sohasi mavjud. Estetikaning dinshunoslik bilan aloqasi ham katta ahamiyatga ega; din va san'at doimo bir-birini to'ldirib keladi, ko'p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo'lib xizmat qiladi. Asrlar mobaynida, ana shu aloqalar natijasi o'laroq, san'at asarining o'ziga xos ko'rinishi - diniybadiiy asar vujudga keldi. Mas, Shohizinda me'moriy majmui, Kyoln jomesi, Rembrandtning "Muqaddas oila" asari, "Abu Muslim jangnomasi" qissasi va boshqalar Estetika bunday asarlarni tadqiq etar ekan, albatta, dinshunoslik fani bilan hamkorlik qiladi. Estetikaning pedagogika bilan bog'liqligi estetik tarbiya masalalariga borib taqaladi; pedagogika ham estetik tarbiya bilan shug'ullanadi. Lekin u alohidaalohida, mustaqil qismlarga bo'lingan holda, turli yosh va sohalar uchunmaxsus belgilangan tarbiya tarzida olib boriladi. Mas, maktabgacha tarbiya, o'quvchilar tarbiyasi, jismoniy tarbiya va hokazo. Estetika esa nafosat tarbiyasining umumiy qonunqoidalarini ishlab chiqadi - inson tug'ilganidan boshlab, to o'limigacha o'tadigan umr bosqichlari uchun taalluqli bo'lgan tarbiya falsafasi sifatida ish ko'radi. Estetikaning semiotika (belgilar va belgilar tizimlari haqidagi fan) bilan aloqadorligi keyingi paytlarda yanada teranroq tadqiq etilmoqda. Ma'lumki, har bir san'at asarining mazmunmohiyati muayyan belgilar vositasida namoyon bo'ladi, ya'ni bilish va baholash natijalari bo'lmish semiotik hamda pragmatik axborotni o'zida mujassam qilgan san'at asari o'sha axborotni yetkazib berishga ham mo'ljallangan; u san'at turiga qarab turlicha belgilar - harflar, chiziqlar, notalar va hokazo orqali amalga oshiriladi. San'atning semiotik belgilar bilan bog'liq ana shu tomonlarini - kommunikativvositachilik jihatlarini semiotika o'rganadi; bu borada alohida tuzilmasemiotik deb nomlangan nazariy yondashuv ham mavjud. Shuningdek, Estetika barcha san'atshunoslik fanlari hamda tabiat Estetikasi nuqtai nazaridan ekologiya, axborot nazariyasi jihatidan kibernetika bilan aloqadorlikda ish ko'radi.

Musiq va san'at maktablari o'quvchilarini axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirishda musiq nihoyatda katta ahamiyat ko'rsatuvchi san'at turlaridan biridir. Musiqaning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u bolalar his-tuyg'ulari va ruhiy holatlarining eng nozik qirralarini, ulardagi farqlarni o'zida ifoda qiladi va shu orqali bolaning ichki olamiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Musiq san'ati qadim zamonlardan

beri muhim tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilib kelgan. U bolada olamga va boshqa kishilarga bo'lgan insoniy munosabat asoslarini tarkib toptiradi. Mana shu sababdan ta'lim tizimida, xususan, musiqa va san'at maktablari faoliyatida o'quvchilarni axloqiy-estetik madaniyatni tarbiyalash vazifasi muhim muammolar qatoridan o'rin egallaydi. O'tmish ajdodlarimizning pedagogik-psixologik qarashlarida, shuningdek, pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarning yangi nashrlari hamda ilmiy-tadqiqot ishlarda ko'rsatilganidek, yoshlarni musiqa san'ati orqali axloqiy-estetik ruhda tarbiyalashda milliy musiqa san'atining ahamiyati beqiyosdir.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, bugungi kunda ayrim umumta'lim maktablarida musiqa xonalarning yo'qligi, xonalarni texnika vosita va musiqa asboblari bilan ta'minlanmaganligi darsning samaradorligiga ta'sir qiladi. Bu esa o'quvchilarning musiqa xaqidagi tasavvuri va bilim ko'nikmasiga o'z ta'sirini o'tkizmasdan qolmaydi. Masalan dars jarayonida musiqa asboblardan foydalanmasdan fonogramma orqali ijro etilishi o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini susaytiradi. Aksincha dars jarayonida musiqiy asboblar ishtirokida jonli ijro o'quvchilar ongida ma'naviyatini yuksaltiradi, san'atga mehr uyg'otadi, tasavvur doirasini kengaytiradi, idrokini rivojlantiradi va ruxini poklaydi. Ayniqsa dars jarayonida milliy cholg'ularimiz dutor, rubob, doira chang kabilardan jonli ijro etish o'quvchilarning qalbida milliy g'urur, milliy qadriyatlar, an'analar va milliy urf-odatlar, o'zligini anglash kabi tuyg'ularni singdiriladi. "O'zbek xalq qo'shiqlari rang-barang janrlarda tarkib topgan bo'lib, inson tug'ulishidan tortib, to hayotining so'nggi kunlarigacha bo'ladigan jamini marosimlar, an'ana va udumlarning bari turli-tuman qo'shiqlarda mujassamlashgan. Azaldan qo'shiqsevar ajdodlarimiz ijtimoiy murakkabligini tabiat va jamiyat munosabatlarining sirlarini tug'yonlarni qalbida jo qilishga intilgan". Inson ruhiyatining ming bir xilda jilvalanishlari hasrat-nadomati, orzu-tilaklari, voqelikka bo'lgan badiiy munosabati qalb to'ridan buloqday jo'shib, qaynab chiqqan qo'shiqlarda mujassamlashgan. Ma'lumki, axloqiy tushunchalar, axloqiy ishonch va axloqiy sifatlar axloqiy ongning tarkibiy qismi hisoblanadi. Axloqiy tushunchalar o'quvchilarning bilim darajasining kengayishiga yordam beradi. Ular o'quvchilarga turli tuman musiqalar orqali ham singdiriladi. Bu ajdodlarimiz tajribasidan yaxshi ma'lum. Musiqa va san'at maktablari o'quvchilarning axloqiy his-tuyg'ularni milliy-musiqiy ohanglar va kuylar orqali yanada mukammalroq sindirib borish katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. КБ Холиков. Проблематика музыкальной эстетики как фактическая сторона повествования. *Science and Education* 3 (5), 1556-1561
2. КБ Холиков. Тяготение основа-основ в музыкальной композиции. *Scientific progress* 2 (4), 459-464

3. КБ Холиков. Вокальная культура как психологический феномен. Актуальные вопросы психологии, педагогики, философии 2 (11), 118-121
4. КБ Холиков. О принципе аддитивности для построения музыкальных произведений. Science and Education 4 (7), 384-389
5. КБ Холиков. Важнейшие полифонические формы многоголосных произведений. Scientific progress 2 (4), 557-562
6. КБ Холиков. Уровень и качество усвоения предмета музыки, закрепление памяти и способности учащихся. Science and Education 5 (2), 452-458
7. КБ Холиков. Обученность педагогике к освоению учащихся сложным способам деятельности. Science and Education 5 (2), 445-451
8. КБ Холиков. Обязанности миелина, о левом и правом пороге миелина. Science and Education 5 (2), 33-44
9. КБ Холиков. Эффективные действия сквалан-углеводород тритерпенового ряда и амаранта к заболеваниям рака, опухоли. Science and Education 5 (2), 27-32
10. КБ Холиков. Педагогическое корректирование психологической готовности ребенка к обучению фортепиано в музыкальной школе. Science and Education 4 (7), 332-337
11. КБ Холиков. Защитный уровень мозга при загрузке тренировочных занятиях и музыкального моделирование реальных произведениях. Science and Education 4 (7), 269-276
12. КБ Холиков. Прослушка классической музыки и воздействия аксонов к нервной системе психологического и образовательного процесса. Science and Education 4 (7), 142-153
13. КБ Холиков. Новые мышление инновационной деятельности по музыкальной культуры в вузах Узбекистана. Science and Education 4 (7), 121-129
14. К.Б. Холиков. Отличие музыкальной культуры от музыкального искусства в контексте эстетика. Science and Education 3 (5), 1562-1569.
15. КБ Холиков. Модели информационного влияния на музыку управления и противоборства. Science and Education 4 (7), 396-401
16. КБ Холиков. Умеренные эмоции при разучивании музыки, функция компонентного процессного подхода психологического музыкального развития. Science and Education 4 (7), 240-247
17. КБ Холиков. Манера педагогической работы с детьми одаренными возможностями. Science and Education 4 (7), 378-383
18. КБ Холиков. Внимания музыканта и узкое место захвата подавление повторения, сходство многовоксельного паттерна. Science and Education 4 (7), 182-188

19. КБ Холиков. Сравнение систематического принципа музыкально психологического формообразования в сложении музыки. *Science and Education* 4 (7), 232-239

20. КБ Холиков. Мозг и музыкальный разум, психологическая подготовка детей и взрослых к восприятию музыки. *Science and Education* 4 (7), 232-239

21. К.Б. Холиков. Музыка как релаксатор в работе мозга и ракурс ресурсов для решения музыкальных задач. *Science and Education*. 3 (3), 1026-1031.

22. КБ Холиков. Характеристика психологического анализа музыкальной формы, измерение ракурса музыкального мозга. *Science and Education* 4 (7), 214-222

23. КБ Холиков. Абстракция в представлении музыкально психологического нейровизуализации человека. *Science and Education* 4 (7), 252-259

24. КБ Холиков. Ответ на систему восприятия музыки и психологическая состояния музыканта. *Science and Education* 4 (7), 289-295

25. КБ Холиков. Проект волевого контроля музыканта и воспроизводимость музыкального произведения. *Science and Education* 4 (7), 189-197

26. КБ Холиков. Психика музыкальной культуры и связь функции головного мозга в музыкальном искусстве. *Science and Education* 4 (7), 260-268

27. КБ Холиков. Внимание и его действие обученному музыканту и оценка воспроизводимости тренировок. *Science and Education* 4 (7), 168-176

28. КБ Холиков. Рост аксонов в развивающийся музыкально психологического мозга в младшем школьном возрасте. *Science and Education* 4 (7), 223-231

29. КБ Холиков. Аксоны и дендриты в развивающийся музыкально психологического мозга. *Science and Education* 4 (7), 159-167

30. КБ Холиков. Фокус внимания и влияние коры височной доли в разучивании музыкального произведения. *Science and Education* 4 (7), 304-311